



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING  
BUYRUG‘I**

**Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirishga doir  
me‘yoriy hujjatlarni takomillashtirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 21-iyundagi PQ–231-son hamda Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” 2024-yil 20-dekabrda 867-son qarorlarida belgilangan vazifalardan kelib chiqib maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarining rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilash, pedagog xodimlarni qayta tayyorlash sifatini oshirish maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishning mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan davlat ta’lim talablari (keyingi o‘rinlarda – Davlat ta’lim talablari) 1-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha va maktab ta’limi tizimida qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish tartibi 2-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha va maktab ta’limi tizimida pedagog kadrlarni kasbiy qayta tayyorlash yo‘nalishlari 3-ilovaga, kasbiy qayta tayyorlash kurslarining o‘quv rejalari 3.1-3.28-ilovalarga, o‘quv dasturlari 3.29-3.56-ilovalarga muvofiq;

Maktabgacha va maktab ta’limi tizimida mutaxassislarni pedagogik qayta tayyorlash yo‘nalishlari 4-ilovaga, pedagogik qayta tayyorlash kurslarining o‘quv rejalari 4.1-ilovaga, o‘quv dasturlari 4.2-ilovaga muvofiq;

Mutaxassislarni kasbiy hamda pedagogik qayta tayyorlash yo‘nalishlari 5-ilovaga, kasbiy hamda pedagogik qayta tayyorlash kurslarining o‘quv rejalari 5.1-5.16-ilovalarga, o‘quv dasturlari 5.17-5.32-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

2. Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi, A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti (A.Ismailov), Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti (N.Abdullaeva), pedagogik mahorat markazlari,

pedagogika oliy ta'lim muassasalari (keyingi o'rinlarda – Kasbiy rivojlantirish ta'lim tashkilotlari) qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini tashkil etishda tasdiqlangan Davlat ta'lim talablariga qat'iy rioya etilishini ta'minlasin.

3. A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti (A.Ismailov) yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilgan holda qayta tayyorlash kurslarining o'quv reja va dasturlarini pedagogika yo'nalishidagi turdosh bakalavriat yo'nalishlari Davlat ta'lim standartlari asosida doimiy takomillashtirib borsin va belgilangan tartibda vazirlikka tasdiqlashga kiritсин.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to'g'risida" 2024-yil 20-dekabrda 867-son qaroriga muvofiq qayta tayyorlash kurslari Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi kasbiy rivojlantirish ta'lim tashkilotlari tomonidan o'tkazilishi belgilab qo'yilganligi inobatga olinsin.

5. Tashkil etilgan qayta tayyorlash kurslarining yakuniy (test) sinovlarini o'tkazish Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markaziga (keyingi o'rinlarda – Markaz) yuklatilsin.

Bunda Markazga kasbiy rivojlantirish ta'lim tashkiloti tomonidan yakuniy sinovlarda ishtirok etgan har bir nomzod uchun bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida mablag' o'tkaziladi.

6. Markaz (D.Davidova)ga:

bir oy muddatda A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutidan (keyingi o'rinlarda – Institut) va boshqa kasbiy rivojlantirish ta'lim tashkilotlaridan qayta tayyorlash kurslari uchun yakuniy test sinovlari topshiriqlari bazalarini qabul qilish hamda belgilangan tartibda ekspertizadan o'tkazish;

qayta tayyorlash kurslarining o'quv dasturlari mazmunidan kelib chiqib testlar bazasini boyitib borish;

tinglovchilar bilim va ko'nikmalarini baholash jarayonlarining shaffof va adolatli o'tkazilishini ta'minlash;

tinglovchilarning yakuniy test sinovlari natijalarini tegishli kasbiy rivojlantirish ta'lim tashkilotlariga taqdim etib borish vazifalari yuklatilsin.

7. Vazirlik tizimidagi kasbiy rivojlantirish ta'lim tashkilotlari:

tasdiqlangan o'quv rejalar va dasturlar asosida qayta tayyorlash kurslari uchun o'quv-metodik materiallari ishlab chiqilishini ta'minlash;

qayta tayyorlash kurslarini tashkil etishda amaldagi me'yoriy hujjatlar va mazkur buyruq talablariga qat'iy rioya qilinishini ta'minlash;

talabgorlarni qayta tayyorlash kurslariga qabul qilish hamda tinglovchilar ro'yxatini shakllantirishda tasdiqlangan yo'nalishlarga mosligini ta'minlash;

talabgorlardan qayta tayyorlash kurslarida o‘qish haqidagi arizalarni va hujjatlarni maxsus platforma orqali elektron tarzda qabul qilish;

tinglovchilarni qayta tayyorlash kurslariga qabul qilish, chetlatish, sinovlarga qo‘yish, kurslarni yakunlash va kurslarni bitirganlik haqidagi hujjatlarni platforma orqali shakllantirish;

tashkil etilgan kurslar va ularning davomiyligi to‘g‘risida Markazni xabardor qilish;

Markaz bilan kelishilgan holda yakuniy test sinovlarini o‘tkazish kunlarini belgilash va sinovlar o‘tkaziladigan kundan kamida o‘n kun oldin kurs tinglovchilariga e‘lon qilish;

yakuniy sinov (test)lar o‘tkaziladigan kundan bir oy oldin ularda ishtirok etadigan tinglovchilar ro‘yxatini shakllantirish va Markazga taqdim etib borish;

yakuniy test sinovlari natijalarini maxsus portal orqali tinglovchilarga ma‘lum qilish;

Markazga yakuniy sinov (test)lar o‘tkazilgan kundan keyingi 10 (o‘n) ish kunida yakuniy sinovlarda ishtirok etgan har bir nomzod uchun bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida mablag‘larni belgilangan tartibda o‘tkazish vazifalari yuklatilsin.

8. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (R.Musurmonov) qayta tayyorlash kurslaridagi o‘quv jarayonini tashkil etish xususiyatlarini, shu jumladan oraliq va yakuniy nazorat natijalarini ma‘lum qilish imkoniyatlarini nazarda tutgan holda maxsus portalni takomillashtirsin.

9. Belgilansinki, qayta tayyorlash kurslaridagi jarayonlarni boshqarishning maxsus platformasi vazirlikning tegishli bo‘linmasi tomonidan boshqarib boriladi.

Bunda qayta tayyorlash kursiga qabul qilinayotgan tinglovchilar ma‘lumotining tasdiqlangan yo‘nalishlarga muvofiqligi va kursni yakunlaganlik haqidagi diplomlarni talablar darajasida rasmiylashtirilishi mazkur bo‘linma tomonidan nazorat qilinadi.

10. Protokol bo‘limi (F.Keldibekov) bir kun muddatda ushbu buyruqni vazirlik markaziy apparatining tarkibiy bo‘linmalari, vazirlik tizimidagi oliy ta‘lim muassasalari hamda qayta tayyorlash va malaka oshirish ta‘lim tashkilotlariga yetkazsin.

11. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirining 2021-yil 30-martdagi “Xalq ta‘limi xodimlarini qayta tayyorlash kurslari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risidagi nizom hamda Xalq ta‘limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlari malaka oshirish kurslari tinglovchilarining yakuniy attestatsiyasi to‘g‘risidagi muvaqqat nizomni tasdiqlash haqida”gi 90-sonli hamda 2022-yil

17-oktabrdagi “Xalq ta’limi tizimidagi oliy ma’lumotli pedagog kadrlarni kasbiy va pedagogik qayta tayyorlash kurslarini takomillashtirish va o‘quv-me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi 321-son buyruqlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

12. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari A.Turdiyev zimmasiga yuklatilsin.

**Vazir**



**E.Karimova**

Toshkent sh.,  
2025-yil “ 30 ”- sentabr,  
367-son